



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDOGOGIKA
UNIVERSITETI.**

“TARIX” KAFEDRASI.

Mavzu: O'zbekiston iqtisodiyotining “Turg'unlik yillari”dagi o'ziga xos
xususiyatlar.

Mustaqil ish



Bajardi: 3-kurs “TARIX” Yo'nalish 301-guruh talabasi Toshkenboyev A.F.

Ilmiy rahbar: T. F. N. dasent. To'rayev S.R.

TOSHKENT 2014

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki Sovet xukumati ikkinchi jahon urushi yillardan so'ng barcha respublikalar tinch iqtisodiy yo'lga o'tildi, keyinchalik iqtisodiy tanazzullar ro'y berishi O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida "turg'unlik" yillarida uning iqtisodi va o'zbek xalqning turmush tarzda kechirgan zulumlari, qiyinchlik, mashaqqatli mehnatlari yoritib berish, Markaz manfaatlar uchun qo'shgan xizmatlari va ularning bunga zulum bilan bergan javoblari. Asl Turg'unlikning bosh sabab hamon dolzarbligicha qolmoqda eng asosiysi ma'naviyatimizga ta'siri uning oqibati Turg'unlik xolatlar savet tarixshunosligi tomondan o'sha davr muhitdan yoritilgani ko'p jihatlarga yondoshilmagani Mustaqillik yillariga kelib xaqoniy yoritilib berganligi jihatdan uning oqibatlarni tahlil qilish chuqurroq o'rganish. Turg'unlik yillarda O'zbekistonning iqtisodiy ko'rsatkichlari ushbu mavzuning naqadar dolzarbligni ko'rsatib beradi.

Mavzuning o'rganish darajasi.

Ushbu mavzu yuzasidan uning dolzarbligni va ilmiy ahamyatni hisobga olgan xolda ko'plab tarixchilar olimlar tomonidan o'rganilgan va mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan asar, maqola tarzda bu mavzuning mohiyati ochib harakat qilganlar. Ushbu ishni yoritishda Jo'rayev N, Karimov SH, Shamsiddinov R, Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonov S asarlarda shuningdek ko'pgina darslik va qo'llanmalarda ushbu mavzu yoritilgan lekin mavzuni hali o'rganilmagan yashirin jixatlari mavjud ushbu mavzuni o'rganish va kelgusi yosh avlodga asil mohiyatni talqin qilish va to'g'ri yetkazib berish bizdek tarixchilarning muhim vazifamizdan biri sanaladi.

¹ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011.

Shamsiddinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixdan materiallar, (III-kitob), A., 2004.

Shamsiddinov R va boshqalar Vatan tarixi, (III-kitob) T., "Sharq", 2010.

Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi, T., "Iqtisod-Moliya" 2006.

O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida (II-kitob) T., "Sharq", 2000.



Mavzuning maqsad va vazifasi

Ushbu mavzuni maqsadi mamlakatimiz ustidan uzoq yillar davomida o'z mustamlaka siyosatni olib borgan sovet ittifoqi davrda O'zbekistonning turg'unlik yillarda iqtisodi xalq hayotining o'ziga xos xususiyatlari 80-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotdagi mahsulotlar sifatning buzulish Markaz tomondan ko'rilgan choralar mustamlaka zulmni ochib berishni maqsad qilgan olib uning yoritishda quyidagi vazifalarni qo'ydim.

-Iqtisodiy bo'hron va turg'unlikning bosh sababi va uning asoslari.

-Turg'unlik ittifoqni o'z domiga tortib O'zbekistoni chetlab qolmagani, 1971-80-yillarda olinadigan foizn kamayishi.

- Ishlab chiqarish surati pasayish natijasda sifatsiz homashyoning ko'payishi.

-1980-yillarda mamlakat turg'unlik iskanjasda aholining iqtisodiy turmushga tasiri.

Mavzuning metodologik asoslari.

Ushbu mavzuning metodologik asoslari ilmiy va haqqoniylik xususiyatiga ega bo'lib Prezidentimiz Islom Karimovning asarlari va nutqlari birinchi o'rinda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuni ilmiy va amaliy ahamiyati.

Men yoritayotgan ushbu mavzuning ilmiy ahamiyati shundaki bugungi kunda sovet mustamlakasi turg'unlik yillarda O'zbekiston iqtisodi uning ahvoli turg'unlikning oqbatlarni O'zbekiston aholining qo'shgan mehnati sovet tarixshunosligida haqqoniy yoritilmaganligi sovet ittifoqi O'zbekistondagi iqtisodiyotda yurtgan siyosatni ochib uning isbotlab berish bugungi kunda tarix fani uchun nihoyatda muhim sanaladi .

Ushbu mavzudan O'zbekiston tarixi darsliklarida dars mashg'ulotlarda qo'shimcha material sifatda foydalanish mumkin bu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

1§. Iqtisodiy bo'hron va turg'unlikning bosh sababi va uning asoslari.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston xalq xo'jalining tinch qurilishga o'tishi murakkab xalqaro vaziyatda kechdi. Urush davrida umumiy dushman fashizmga qarshi kurash antifashist davlatlar va xalqlarni birlashtirgan bo'lsa, urush tugagandan keyin bu ittifoqdagi davlatlar orasida ajralish yuz berdi va ikki o'rtada sovuq urushlar munosabati boshlanib ketdi.

Urushdan so'ng fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shgan O'zbekiston xalqlari oldida harbiylashgan xalq xo'jaligini tinch qurilish yo'liga solish, uni urushdan oldingi darajaga yetkazish va rivojlantirish kabi murakkab vazifalar turardi.

Urush davrdagi harbiy-iqtisodiy hamkorlik tajribasi urushda keyingi vayron bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirishda ham g'arb davlatlari bilan hamkorlik qilish zarurligni ko'rsatdi. Lekin haddan tashqari mafkuralashgan sovet tizimi Respublikalarni xorijiy mamlakatlardan "term qo'rg'on" bilan ajratib mamlakatni ortiqcha qiyinchiliklar va qurbonga mahkum etdi.² Sobiq Ittifoq boshqa mamlakatlardagi tiklanishning ilg'or tajribalardan, chet el sarmoyalardan foydalanishni istamadi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov II jahon urushida vayron bo'lgan Yevropa, Yaponiya, Janubiy Kareya mamlakati birinchi navbatda, albattda "o'z kuchiga tayanib, o'z imkoniyatlariga suyanib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarildi"³, deydi.

O'zbekiston urushdan keyingi yillarda o'z xalqning arzon kuchdan, boy xom ashyo manbalardan cheksiz ravishda foydalanshga asoslangan kompartiya chizib bergan besh yillik rejalarni bajarishga kirishdi.

Bu bir tomonlama, Markaz manfaatiga bo'ysindirilgan respublika iqtisodiyotini urushdan oldingi darajaga yetkazish va yanada rivojlantirishga qaratilgan vazifani bajarishda o'zbek xalqning mexnatsevarligi, sabr toqatliligi va tinchliksevarligi kabi fazilatlardan foydalanildi.

Iqtisodiyot oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalar O'zbekiston SSR Oliy Kengashinig 1946 yil avgustida chiqarilgan 8-sessiyasida qabul qilingan 1946-1950 yillarga mo'ljallangan rejada beliglandi. Bunga ko'ra, xalq xo'jaligining barcha sohalarga 3 mlrd. 900 ming so'm kapital mablag' ajratildi. Sanoatni rivojlantirish ishlari respublika iqtisodiyotning yetakchi sohasi paxtachilikni rivojlantirishga qaratildi.⁴

² O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 508-sahifa.

³ Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy islohatlar chuqurlashirish yo'lida. T., "O'zbekiston" 1994, 14-sahifa.

⁴ O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 503-sahifa.



Qisqa davr oralig'ida 20-30 yillardagi "sotsializm qurish" azoblari ayniqsa, ikkinchi jahon urushi davri qiyinchiliklarni, mashaqqatlarni boshdan kechirgan O'zbekiston xalqi iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish yo'lida ham hormay tolmay mehnat qilib bordi. Sovet hukumatning 1946 yil 2 fevraldagi O'zbekistonda paxtachlikni tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risidagi qarorlar O'zbekiston paxta yakkahokimligini kuchaytirish uchun asos bo'ldi.⁵

Iqtisodni tiklash ayniqsa qishloq xo'jaligida ayniqsa, paxtachilikda qiyinchilik bilan o'tdi.

O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish to'g'risida sovet hukumatning urushdan keyin qabul qilingan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan o'nlab qarorlar izchillik bilan amalga oshirilmadi, shuning uchun ham kutilgan natijani bermadi. 1947-1948 yillarda paxta tayyorlashning davlat rejasi bajarilmadi.

1949 yildan boshlab ahvol birmuncha o'zgardi. 1950 yili 2 mln 222 ming tonna paxta yetkazib berildi, hosildorlik gektardan 20,7 sentnerga yetdi. 1950 yilda paxtaning haridi narxi oshirildi. Lekin dehqonchilikning boshqa sohalarda ekin maydonning qisqartirilganligi oqibatda g'alla va sabzavot tayyorlashda urushdan oldingi darajaga yetmadi.⁶

Pul islohot o'tkazildi qisqartirilgan ish soati joriy etildi, kundalik iste'mol mahsulotlarning narxi arzonlashtirildi. Bu tadbirlar pulning xarid quvvatini oshirish imkoniyatni to'g'dirdi. Lekin shunga qaramasdan narx-navo hali ancha yuqori edi. 1950 yili O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari 1940 yilga nisbatan deyarli ikki barobar qimmat edi.

Keng istemol mollari ishlab chiqarish tobori kamaydi. Ular asosan chetdan keltiriladigan bo'ldi natijada respublika aholisining yengil sanoat, oziq ovqat mollarga ehtiyoji kuchaydi.

50-60-yillarda quruq va bo'z yerlarni o'zlashtirish va shu asosda paxta va g'alla yetishtirishni ko'paytirish choralari ko'rildi. O'zbekistonda uch yil ichida 1953-1955 yillar oralig'ida 130 ming gektar yangi yerlar ochildi ochilgan yangi yerlarda asosan paxta yetishtirishga qaratildi, natijada xo'jalik oziq ovqatlar soni kamaydi.⁷

1950-yillarda sanoat va qurilish, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi tarqoqlikning respublika iqtisodining kompleks rivojlanishga etibor yanada kuchaydi.

⁵ O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 504-sahifa.

⁶ O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 504-sahifa.

⁷ O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 508-sahifa.

Rangli metallurgiya sohasida Osh, Olmaliq havzasi va Zaravshon tizmasi tog' konlari o'zlashtirildi. Mashinasozlik qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan sohasi 1959-1965 yillarda 1952-58 yillarga nisbatan keskin oshdi.⁸

Mahalliy aholining mashaqqatli mehnati hisobiga yetishtirilgan qimmatbaho mahsulotlari sovet mamlakatining iqtisodiy va kuch-qudratini oshirishga bo'ysindirildi.

1955 yilda Jarqoq, 1956 yilda Gazli neft konlarining ochilishi natijasida gaz sanoatning moddiy bazasi yaratildi. 1958-1960 yillarda Jarqor-Buxoro-Samarqand-Toshkent magistral gaz quviri yotqizildi.⁹

Sanoatda mehnat unumdorligi masalasiga kelsak, O'zbekistonda bu ko'rsatkich ittifoq darajasining atiga 40 foizga teng edi, xolos. Qishloq xo'jaligida esa mehnat unumdorligi umum ittifoqning o'rtacha ko'rsatkich darajalardan ikki barobar kam bo'lgan.¹⁰

Jahon taraqqiy topgan mamlakatlarda XX asr ikkinchi yarmida sodir bo'lgan ilmiy-texnika iqlobidan samarali foydalanildi. Mashina-fabrika ishlab chiqarishdan avtomatlashtirilgan kompleks ishlab chiqarishga o'tib borildi. Natijada ilg'or mamlakatlarda ishlab chiqarish intensiv taraqqiyot yo'liga kirdi.

Sovet davlatida esa ilmiy-texnika iqlobidan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmadi. Iqtisodiyot ekstensiv yo'lda, tobora ko'p qo'shimcha mehnat va moddiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etishda suskastlik qilinayotgan edi.

Buyruqbozlik boshqaruv usuli, mamlakatda keng tarqalgan sansalarlik, qog'ozbozlik, majlisbozlik illatlari iqtisodiyotning o'z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda edi. Odamlar mulkdan begonalashtirigan, shu tufayli loqayd, sust beparvo edilar.¹¹

Sovet mustabid tuzumining bo'hroni iqtisodiy kuchliroq avj oldi. Bu jaroyon 50-yillarning oxiri va 60-yillarda boshlandi. Buni biz 1956-1960-yillarga mo'ljallangan besh yillik va 1959-1965-yillarga mo'ljallangan yeti yillik rejalarning juda ko'p yo'nalishlari bo'yicha bajarilmay qolganligida ko'ramiz.¹²

Bu ayniqsa, 80-yillarda kuchli tus oldi. M.S.Gorbachovning quyidagi so'zlari yuqoridagi xulosani tasdiqlaydi: "Biz mamlakatdagi vaziyatni tahlil qilganimizda, eng avvalo ekonomikaning o'sishga to'sqinlik qilayotganligiga duch keldik.

⁸ O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 509-sahifa.

⁹ O'sha manba 509-sahfa.

¹⁰ O'sha manba 510-sahfa.

¹¹ Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi, T., "Iqtisod-Moliya" 2006, 375-sahifa.

¹² Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011, 566-sahifa.

Milliy daromadlarning o'sish sur'atlari keyingi besh yillik davomida ikki hissadan ziyod pasaydi, 80-yillar boshlab esa bu sur'atlar shunday darajaga tushib qoldiki, u amalda bizni iqtisodiy turg'unlikka yaqinlashtirib qo'ygan edi. Ilgari dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlarga shiddat bilan yetib olgan mamlakat bir pozitsiya ketidan ikkichisini qo'ldan boy bera boshladi.

Buning ustiga ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot sifatning oshirishda, fan-texnika taraqqiyotida zamonaviy texnika va texnologiyani ishlab chiqarish va o'zlashtirishda rivojlangan mamlakatlardan orqada qolish bizning ziyonimizga ko'paya bordi"¹³ Buning eng asosiy sababi-ishlab chiqarish fondlarni o'stirishning birdan bir asosiy shakli sifatida intensiv yo'l emas, balki ekstensiv yo'lni tanlagani bo'ldi.

Bir necha o'n yillar mobaynida respublika iqtisodiyoti markazda boshqariladigan yagona xalq xo'jaligi kompleksining tarkibiy qismi edi. Markaz qabul qilgan ko'pgina qarorlar O'zbekistonning manfaatlaridan yiroq edi. Xullas chor imperiyasi davrdagidek, respublika arzon xom ashyo va strategik mineral resurslar bazasi edi. U tayyor mahsulot sotiladigan qulay bozorga aylanib qolgandi. Respublikaning ulkan tabiiy boyliklardan foydalanilgan holda daromadlar uning hududidan ancha olisda qolib ketardi.¹⁴

O'zbekiston Sobiq Ittifoq tarkibida tashqi bozorga mustaqil chiqmasdi. Jahon savdosda qatnashmasdi. O'zining iqtisodiy quvvatini yetarlicha ishga tushira olmasdi. Bu davrda sanoat korxonalar rivojlantirishda biqizlik yuz berib, buni biz xonliklar davrdagi biqizlik bilan solishtirsak uning rivojiga ta'sirni tushuncha qilamiz.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki turg'unlik va uning boshlanish sabablari ikkinchi jahon urushdan keyingi yillarda iqtisodiyotning ta'siri yuqori darajada bo'lganligi uning rivojlantirish uchun zo'rovonliklar olib borilganligini o'rgandik.

Uning dastlabki yillarda yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi keyinchalik esa oqsoqlik yuz bera boshlaganini ko'ramiz ayniqsa paxtaga etibor kuchaydi ko'plab yangi yerlar o'zlashtirildi qishloq xo'jaligida poliz va sabzavod ekinlari kamaydi va tuzilgan besh yillik va yetti yillik mo'ljallangan rejalarning amalga oshmaganligi ko'ramiz.

Turg'unlik butun ittifoqga o'z ta'sirni o'tkazganiligni ko'ramiz xalqning zulm iskanjada qolib ularning hayoti turmush tarzi o'rganilmasdan yuqordan Ittifoq "yagona xo'jalik kompleksi" degan niqob ostida aldovlar bilan boshqarlar edi. O'rganishlar jarayonda O'zbekiston istemol mollar bo'yicha go'sht tuhum istemolda Ittifoqdan past o'rinlarda turar edi.

¹³ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011, 566-sahfa.

¹⁴ Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy islohatlar chuqurlashirish yo'lida. T., "O'zbekiston" 1994, 31-sahifa

Iqtisodiy turg'unlik sekin asta dastlabgi kurtaklari namoyon bo'la boshladi yuqorda qayt etilgan tarixiy malumotlarni kuzatadigan bo'lsak dastlabki yillarda iqtisodiyot ishlarda juda ko'p ishlar olib borilgani va 60-yillarda susayishni turg'unlikni ilk boshlanishni kuzatishimiz mumkin bu jarayon keyingi yillarda ancha jiddiy tus olib ketishga zamin yaratib berdi Respublikamiz iqtisodiyotda o'zgarishga olib keldi.

§ 2. Turg'unlik ittifoqni o'z domiga tortib O'zbekistoni chetlab qolmagani, 1971-80 yillarda olinadigan foizni kamayishi.

Turg'unlik iskanjasida qolgan davlatlar qatorida O'zbekistonning iqtisodiy ko'rsatigichi achinarli ahvolda edi. Bu ayniqsa 1971-80-yillar davomida kuchaya boshladi, buni biz shu misollarda ham ko'ramizki, sobiq Ittifoqda 1961-1970-yillarda Milliy daromadning o'sishi 7,1 foiz va 8,8 foizni tashkil etgan holda, 1971-80-yillarda bu 5,0 foiz va 8,1 foizga teng bo'ldi. Sobiq Ittifoqda yagona xo'jalik kompleksi degan daqqiyunsdan qolgan iborani bo'lar-bo'lmasga hadeb ishlataveradigan ba'zi olimlar yana ajab bir tarzda "turg'unlik" umuman Ittifoqda bo'lmagan, mabodo Ittifoqda bo'lgan bo'lsa-da O'zbekistonga uning hech qanday daxli yo'q, O'zbekiston iqtisodi muttasil rivojlanib doimo cho'qqilar sari borgan¹⁵, deb isbotlashga asossiz urindilar.

Bu g'oyaning asossizligi shundaki:

Birinchidan: Sobiq Ittifoq yagona xo'jalik kompleksi bo'lsa-yu "turg'unlik" kasali Ittifoqni o'z domiga tortib O'zbekistonni chetlab o'tdim? Inson kasallanib vujudining harorati oshibdi-yu harorat insonning yo qo'li, yoki oyog'iga o'z tasirni o'tkazmabdi, deyish kabi mantiqsizlik emasmi?

Ikkinchidan: O'zbekiston Sobiq Ittifoq yagona xo'jalik kompleksining bir bo'lagi bo'lganda ham, uning oddiy bir bo'lagi emas, balki mustamlaka tazyiqga olingan, hamma tomonlama Markazga qaram va tobe bo'lagidir. Bas shunday bo'lgach, Ittifoq turg'unlik botqog'iga botgan ekan, O'zbekiston qanday qilib chetda qoladi? Albattda bunday davlatlarning asossizligini o'jar dalil va faktlar batomom inkor etadi. O'zbekistonda ham iqtisodiy bo'hron va turg'unlik, ayniqsa 80-yillarda o'zining butun bo'yi-basti bilan amal qilganligini ko'rsatadi.¹⁶

¹⁵ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq" 2011, 566-sahifa.

¹⁶ Shamsiddinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixdan materiallar, (III-kitob), Andijon., 2004. 558-sahifa.

Biz O'zbekistondagi vaziyatning yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va aholi jon boshiga milliy daromat taqsimotining Ittifoqdagiga qaraganda bir necha barobar orqada bo'lganligini ko'ramiz. 80-yillarda O'zbekiston kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Ittifoqda oxirgi o'rinlardan birida bo'lgan, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past bo'lgan. 1976-1986-yillar mobaynida O'zbekistonning mamlakat milliy daromadiga qo'shadigan hissasi amalda ko'rsatmadi.¹⁷

Farg'ona vodiysda 1982-yilda 8 ta sanoat korxonasi mahsulot realizatsiya qilish rejasini bajarmadi, beshdan bir korxona tovar mahsulot ishlab chiqarish hajmini 1981-yil darajasiga yetkaza olmadi. Viloyatning 29 ta korxonasi mehnat unumdorligini oshirish bo'yicha 1981-yilgi ko'rsatkichdan ham orqada qolib ketdi, yettita korxona bu boradagi rejani eplay olmadi.¹⁸

Sanoatda mehnat unumdorligi masalasiga ko'ra O'zbekistonda bu ko'rsatkich Ittifoq darajasining ataga 40 foizga teng edi, xolos. Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi umuman Ittifoqning o'rtacha ko'rsatkich darajasidan ikki barobar kam bo'lgan. Bu shunga olib keladi, ishlab chiqarish sur'atlari ilgarilash o'rniga orqaga ketdi. 1981-1985-yillarda O'zbekistonda sanoatda ishlovchi har bir ishchi hisobiga mahsulot tayyorlash 29 foiz ko'payish o'rniga bor yo'g'i 8 foiz ko'paydi. Qurilishda mehnat unumdorligi atigi 3 foiz o'sdi, qishloq xo'jaligida esa hatto kamayib ketdi.¹⁹ Bu salbiy holatlarning oqibatlari shu bo'ldiki, belgilangan davlat rejalari va topshiriqlari bajarilmadi, sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifat ko'rsatkich darajalari xalqaro standartlar talabi u yoqda tursin, ichki bozor talablarni qoniqtra olmadi.

Qishloq xo'jaligi va chorvachilikdagi ahvol sanotdagidan ko'ra afzalroq emas edi. Biz yuqorida Sovet Ittifoqi davrda O'zbekiston qishloq xo'jaligi bir tomonlama va asosan ekstensev yo'l bilan rivojlantirilganligini ta'kidlagan edik. Bu yaroqsiz usul, xususan, 80-yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligini ham turg'unlik holatiga solib qo'ygan edi.

Ishlab chiqarish fondlarning har so'mi hisobiga mahsulot olish kamaydi. 1976-1984-yillarda Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligiga davlat 8 milyard so'm mablag' sarifladi.²⁰ Maydonning hajmi jihatdan bu respublikada ishga tushirilgan quriq yerlarning yarmisiga teng bo'ldi. Ammo bu regionlarda paxta yetishtirish ko'payish o'rniga kamayib ketdi.

¹⁷ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq" 2011, 567-sahifa.

¹⁸ O'sha manba 568- sahifa.

¹⁹ Shamsuddinov R va boshqalar Vatan tarixi, (III-kitob) T., "Sharq", 2010. 421-sahifa.

²⁰ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011. 567-sahifa.

Farg'ona viloyatidagi jamoa va davlat xo'jaligi ishlab chiqarishning rentabelligi 1975-yildagi 19 foizdan 1980-yilda 13 foizga tushib qoldi. Viloyatdagi jamoa xo'jaliklarning Davlat bankidan olgan qarzдорligi 71 million so'mga yetdi. Viloyatning uch tumani (Bog'dod, Furunze va Yozyovan), 23 ta jamoa va davlat xo'jaliklari, 717 birgadasi 1982-yilda davlatga paxta topshirish rejasini bajara olmadi.²¹

1985-yilda jami bo'lib respublikadagi tumanlarning yarmi, 11 ming brigada paxta tayyarlash yillik rejalarni bajarmadi. 1986-yilda 424 sovxoz va 22 jamoa xo'jaligi yillik zarar bilan yakunladi. Umuman olganda, 1985-yilga nisbatan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish 1986-yilda 2 foiz kamaydi.²²

Qishloq xo'jaligining boshqa sohalaridagi davlat rejalari ham bajarilmadi. Jumladan 1986-1988-yillarda kartoshka yetishtirish Buxoro viloyatida 29 foiz, Qoraqalpog'istonda 35 foiz, Andijonda 50 foiz, Qashqadaryoda 67 foiz, va Toshkent viloyatda 68 foiz bajarildi. Shu yillar mobaynida O'zbekiston aholisi Buxoro, Namangan, Samarqand, Andijon va Xorazm viloyatlarida 375 ming tonna bog'dorchilik mevalari va 185 ming tonna uzum ham oldi.²³

80-yillarning o'rtalardan milliy daromad ishlab chiqarish, mehnat unumdorligini oshirish kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar yana oqsay boshladi O'zbekiston boshqa respublikalardan hamon ortda qolmoqda edi. Ayniqsa milliy daromadning o'sishi borasida ahvol og'ir edi. 1986-1987-yillarda uning o'sishi 10,7 foizgacha deb belgilangani holda, uning amaldagi holati 1,4 foizga arang yetdi.²⁴

Ushbu davrda O'zbekiston aholisi 6 foizga ortdi. Bu respublika aholisi jon boshiga daromad hajmi bo'yicha ortga ketganidan dalolat berdi. 1988-yilgi bunday ko'rsatgich umumittifoq ko'rsatkichidan 3 marta kam bo'ldi. Qayta qurish yillarida O'zbekistonning Markaz bilan iqtisodiy munosabatlarni ko'plab mavjud nomuvofiqliklar yanada avj oldi. Masalan 1986-1990-yillarda respublikaning asosiy ishlab chiqarish fondlari 21 foizga yetdi, davlat budjetidagi daromadlar esa 7 mlrd so'mga ko'paydi. Lekin istemol uchun sariflanadigan milliy daromad hajmi 4,3 mlrd so'mni tashkil etdi, xolos. Aholi sonining ortib borishi, unda yosh bolalar hamda faxriylar hissasining jiddiy ortishi ham aholi jon boshiga milliy daromad hajmining taqsimlashida salbiy nisbatni yuzaga keltirdi.²⁵

²¹ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011, 569-sahifa.

²² Shamsiddinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixdan materiallar, (III-kitob), Andijon., 2004, 558-sahifa.

²³ O'sha manba, 559-sahifa.

²⁴ O'zbekiston tarixi 10-sinf, T., "Sharq", 2006. 430-sahfa.

²⁵ O'sha manba, "O'zbekiston tarixi" 10-sinf, T., "Sharq", 2006. 428-sahfa.

O'zbekiston hududida katta hajmdagi va ko'p sonli Ittifoq vazirliklari tasarrufidagi korxonalar ham joylashgan edi. Odatda, bunday korxonalar daromadlari shu respublika milliy daromadiga qo'shilishi lozim edi. Ammo Markazning ko'rsatmalariga asosan asosiy daromad markaziy vazirliklar ixtiyoriga jo'natildi. 1988-yilda O'zbekistondagi shunday korxonalar bor-yo'g'i mahalliy budjetga 10 mln so'mgina mablag' ajratdilar xolos.

80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi ahvol achinarli edi. Ayniqsa qishloq xo'jaligining iqtisodiy samaradorligi yildan yilga pasayib bordi. Masalan, 1985-1990-yillarda qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi o'rtacha yillik hajmi har bir kishi-soat hisobidan o'tgan besh yildagiga nisbatan jamoa xo'jaliklari va qishloq xo'jalik korxonalarda 1,5 foizga, davlat xo'jaligida esa 16,1 foizga kamaydi.²⁶

Iqtisodiy turg'unlik ayniqsa chorvachilikka halokatli ta'sir ko'rsatdi. Chunki Moskvaning quruq vadalariga ishonib, bu sohaga etibor talab darajasida bo'lmadi. Chorva mollari soni keskin kamaydi. Birgina sigirlar 1986 yilda 1981 yildagiga nisbatan 1,2 ming boshga kamaydi. Natijada shu bo'ldiki, 1981-1985 yillarda respublika aholisiga rejadagiga qaraganda 70 ming tonnadan ko'proq go'sht, 220 ming tonna sut, 1000 million dona tuxum yetkazib berilmadi. Aholining shaxsiy chorva xo'jaliklari yanada ayanchli holatga tushib qoldi. 1989 yil 31 martdagi ma'lumotlarga qaraganda Sirdaryo viloyatidagi 42, Samarqand viloyatdagi 36, Qashqadaryo viloyatidagi 28 xo'jalikada umuman sigirlar bo'lmagan. Qishloqlarda istiqomat qiluvchi xonadonlarda 770 mingtasida yoki 41 foizda umuman sigir bo'lmagan.²⁷

Yuqorida takidlab o'tilganidak "turg'unlik va bo'hroni" ko'plab sohalarda kuzatildi, xalqning hayotida mudhish iz qoldirdi. Turg'unlik kuchayib borishi natijasida Ittifoqda boshqaruv ham qiyinlashdi yuqoridan turli buyruqlar berilardi, yagona xo'jalik kompleksi boshqaruvi natijasda mahsulot tanqisligi kuchaydi unvermark va do'kon rastalar bo'shab qoldi mahsulot o'z vaqtda kelmadi uning asosiy sababi foizning kamayishi ishlab chiqarish surati pasayishi bo'ldi O'zbekistonning o'z budjetida deyarli mablag' yo'q edi.

²⁶ O'zbekiston tarixi 10-sinf, T., "Sharq", 2006. 430-sahfa.

²⁷ O'sha manba, 429-sahfa.

Tarixiy adabiyot va manbalarda ma'lumot berishcha 1971-1985-yillarda xalq xo'jaligi reja topshiriqlarni muntazam bajarmasligi, mahalliy daromadning yillar davomida o'sishi o'rniga to'xtovsz pasayib borgan, oziq-ovqat dasturning bajarilmasligi, xalq iste'moli mahsulotlar yetishmasligi, xalqning turmush darajasi pasayib borgani, ijtimoiy sohada juda katta uzulishlar va taqchilliklar bo'lib kelgan bularning barchasi ko'p darajada O'zbekistonning xo'jalik hayotini izdan chiqarishga, ijtimoiy siyosiy tuzimning beqarorlashuviga olib kelgani hech kimga sir emas. Ota-bobolarimiz boshdan kechirgan kunlarni eshitib ko'rsak ular turg'unlik davrda oziq-ovqat mahsulotlari kamaygani, mebil olish uchun nikoh shartnomasi ko'rsatilgani do'konlarda mahsulot tanqisligini aytishadi.

§ 3. Ishlab chiqarish sur'ati pasayishi natijasda sifatsiz xom ashyoning ko'payishi.

Turg'unlik yillarda sanoat og'irlashuvi ishlab chiqarish sur'ati pasayishi mahsulotlar sifatiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. 70-80-yillarda sanoat ishlab chiqarish rivoji, uning hajmi va mehnat unumdorligi sur'atlari pasayib, mahsulotlar sifati, boshqa eng muhim iqtisodiy ko'rsatgichlari yomonlashib ketdi. Agar urushdan keyingi dastlabgi yillarda yalpi sanoat mahsulotining o'rtacha yillik o'sish suratlari 10-15 foizni tashkil etgan bo'lsa, endilikda ular 5-7 foiz darajasiga tushib qolgan edi.²⁸

O'zbekiston sanoati asosan paxtachilikga qaratilgan edi, paxta yetishtirish va xom ashyo yetkazib berilardi. Ittifoqdagi barcha zavod, fabrikalarda dasgohlari eskirgan yangilanmagan edi ishlab chiqarish sur'atiga ham ta'sir qilardi. 1985-1989-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida paxta va u bilan bog'liq xo'jalik tuzumi saqlanib qolaverdi. Bu hol paxtachilik komplekslari, yengil sanoatni rivojlantirishga ustvor yo'nalish sifatida qaralganida ravshan ko'rindi. Pirovard natijada O'zbekistonda ishlab chiqarish vositalaridan ko'ra istemol mollari ishlab chiqarishga ko'proq etibor berildi. Respublika yengil sanoati esa tabiiyki, uning ijtimoiy taraqqiyotini ta'millay olmadi. O'zbekistonni yengil sanoat respublikasiga aylantirishga urinish keyingi yillarda yanada kuchaydi.²⁹ Bundan ko'rinib turibdiki sanoatda bir tarmoqqa qaratilgan. O'zbekiston istemoldan tashqari ehtiyojlarni o'zi qondira olmasdi, bundan ko'zlangan maqsad uzoq vaqt mobaynida mustamlakachilikni olib borish ko'zlangan.

²⁸ O'zbekiston sovet mustamlakachligi davrida (II-kitob) T., "Sharq", 2000, 527-sahfa

²⁹ O'zbekiston tarixi 10-sinf, T., "Sharq", 2006. 430-sahfa.

Markazlashgan rejalashtirish, ishlab chiqarish va taqsimot Markazning qat'iy nazoratida bo'lishi xalqning tashabbuskorligi va ijodini tobora bo'g'ib qo'ya boshladi, mavjud qiyinchiliklarni yengish imkonini bermadi, chaqiriqlar, chiroyli shiorlar va majburiyatlar bilan niqoblangan muammolar hal etilmasdan qolaverdi.

O'zbekiston sanoatida va butun iqtisodiyotida turg'unlik tamoyillari muqarrar ravishda ortib boraverdi. Umuman, sanoat sekinlik bilan, katta uzilishlar va tanazzullar bilan ishlayotgan edi. Sanoatni bir tarmoqliligi turg'unlikni yanada kuchayishi va boshqa tarmoqlarga ta'sirni o'tkazdi va ishlab chiqarishni oshirish maqsadida o'z-o'zidan sifatni buzulishga rejalarni bajara olmasligiga olib keldi.³⁰

O'zbekistondagi zavod va fabrikalarning ko'pchiligi davlat ishlab chiqarish rejasini bajarishni uddalay olmasdi. Birgina 1975 yillarda respublikadagi 527 ta korxona ishlab chiqarish rejasini bajarmadi. Asbob-uskunalar ko'p vaqt bekor turib qolar, ishlab chiqarish quvvatlaridan yetarli foydalanilmasdi. Sanoat korxonalarining ko'pchiligi bir tarmoqda ishlamas, sifati past mahsulotlar ishlab chiqarardi. Texnikaviy jihatdan qoloqlik va mutaassiblik hollari qiyinchilik bilan barham toptirilardi. Mashinasozlik va boshqa zavodlar eskirib qolgan konstruksiyadagi mahsulotlar chiqarishardi. Yengil va oziq-ovqat sanoati esa "qoldiq" prinsipiga bog'lab qoyilgan edi.³¹ Ushbu jarayonlarni o'rganib sanoat korxonalarni ish jarayonlarni to'xtab turganini oziq-ovqat tarmog'da qiyinchiliklarga uchraganini foizlarni ko'tarilish o'rniga tushib borildi.

O'zbekiston sanoati ishlab chiqarishni mehanizatsiyalash va ham avtomatlashtirishning juda past darajasi bilan ajralib turardi. Qo'l mehnati bilan band bo'lgan ishchilarning salmog'i o'rta hisobda 48,7 foizga yetardi. Ko'pgina korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlarning ko'pi bilan 70 foizidan foydalanilardi va ular ham to'liq ish bilan ta'min etilmagandi. Ish vaqtining haddan ortiq bekor sarflanishiga yo'l qo'yildi, kadrlar qo'nimsizligi yuqori edi. Misol uchun, 80-yillarning faqat birinchi yarmida sanoatdagi ish vaqtning bekor sarif bo'lishi oqibatida sanoat o'rta hisobda bir yilda 100 min so'mlikdan ortiq mahsulotni kam berdi.³² Turg'unlik yillarida iqtisodiy ko'rsatkich pasayib bordi buning natijasida xomashyo bazasi kamaydi uning oqibatida sifatsiz mahsulot hajmi ortdi. Natijada, keraksiz yaroqsiz mahsulotlar ko'paydi, bundan davlat va xalq xo'jaligi hisobsiz zarar ko'rdi.

³⁰ O'zbekiston sovet mustamlakachligi davrida (II-kitob) T., "Sharq", 2000, 526-sahfa.

³¹ O'sha manba, 528-sahfa.

³² O'sha manba, 529-sahfa.

Buning sababi ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga emas balki uning hajmi soniga etibor berildi natijada keraksiz mahsulot xajmi ortdi. 1981-1985-yillarda O'zbekistonda sanotdagi yangilanish sur'atlari 1980-yildagiga nisbatan ikki barobarga kamaydi. 1986-yilda O'zbekiston Konstruktorlik buyrosi ishlab chiqqan va ishlab chiqarishga yuborilgan mashinalarning 60 foizdan ko'prog'i zamon talabi darajasida bo'lmagan.³³

Korxonalarda yillik rejalarni bajarish u yoqda tursin endilikda sifatli mahsulot ishlab chiqara olmadi, "O'zbekxolopmash" birlashmasi surinkasiga 14 yil davomida eskirgan nusxadagi podborshiklar va 19 yildan beri eskirgan shamollatgich (vintelyator)lar ishlab chiqargan. 1986-yilda esa bu korxona ishlab chiqargan paxta tozalagichlarning hammasi 100 foizi³⁴ birak deb topildi.

1986-yilda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mebil mahsulotlarining 38 foizi, tekshirilgan sharbatlar va ichimliklarning 46 foizi, gilamlarning 95 foizi, shoyi gazlamalarning 49 foizi brak qilingan va narxi pasaytirilgan. 129 korxonaning mahsuloti talab darajasida bo'lmaganligidan savdoga chiqarilmadi. Xuddi shu yilli respublikadagi 130 dan ortiq korxona mahsulot realizatsiya qilish rejalarni, 260 taga yaqin korxona³⁵ mehnat unumdorligi rejalarni eplay olmadi. Korxonalarda mahsulotlar to'planib qoldi bozorlarda esa aksincha maxsulotga talab yuqori edi deyarli topib bo'lmasdi biror bir kattaroq mebil sotib olish uchun oylab kutishga to'g'ri kelardi, sifatli mahsulot kamaydi, uning oqibatida sifatsiz mahsulot ko'payib bordi. Bu holat ko'plab korxonalarda hamda boshqa sovet mustamlaka davlatlarda kuzatilganini O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiyotda kuchli ta'sir o'tkazdi. Sotsialistik respublikalar "oziqa zanjiri" bir birga mahsulot yetkazib berardi shu tufayli boshqa davlatlarda ham bo'lib o'tganini isbotlaydi.

Biroq O'zbekiston SSR sanoatiga bildirilayotgan yuksak talablar bu yerda yangi (ilg'or) texnologiyalarni, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini jary qilish bilan hamohang emasdi. Bu esa muqarrar ravishda belgilangan rejaning bajarmasligiga va boshqa nomutanosibliklarga olib keldi, bular ayniqsa sanoatning yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarida aniq ko'zga tashlanar edi. Faqat 1985-yilda respublika sifatsiz ishlab chiqarilga mahsulotlar uchun jarimalar to'lash, ularning narxlarni pasaytirish hisobidan 700 million so'm³⁶ zarar ko'rganligi ishonchli manbalarda qayt etiladi.

³³ Shamsiddinov R va boshqalar Vatan tarixi, (III-kitob) T., "Sharq", 2010. 422- sahifa.

³⁴ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011, 568-sahifa.

³⁵ Shamsiddinov R va boshqalar Vatan tarixi, (III-kitob) T., "Sharq", 2010. 421- sahifa.

³⁶ Shamsiddinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixdan materiallar, (III-kitob), Andijon., 2004, 559-sahifa.

Korxonalarni hatto ularni rivojlantirishga ajratiladigan arzimasi dotasiyalar ham vaqt o'tishi bilan olib tashlandi va (asosan energiya ko'p sarflanadigan) tarmoqlarga berildi. Asbob-uskunalar yillar momoynida yangilanmadi, yangi texnologiyalar joriy etilmadi.³⁷

1985-yilga kelib O'zbekistonda bir yarim mingdan ortiq yirik ishlab chiqarish, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, kombinat va korxonalar bor edi.³⁸

Mashinasozlikning bir tomonlama xususiyatga ega ekanligi O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi kopgina ishlab chiqarish jarayonlarni mexanizasiyalashga xalaqt berdi, bu jarayon boshqa respublikalarga ancha-muncha past edi. Paxta, qorako'l, shoyi, pilla yetishtirib, Markaz qudratini oshirib kelgan O'zbekiston Moskva boqmandasi degan soxta yorliqqa ega bo'ldi.³⁹ O'zbekiston iqtisodiyosati markazdan turib boshqarilar ahvoli o'rganilmasdan buyruqlar berilar va har xil bo'qton toshlari ham otilib turardi.

Iqtisodiy tanazzul 80-yillarda kuchli tuz oldi, ko'plab korxonalarda ishlab chiqarish susaydi O'zbekiston zavod fabrikalar ham asosan paxta yetishtirish uchun mo'ljallangan. Bunga misol sifatida Toshkent traktor zavodi u yerda qishloq xo'jaligiga asosan paxta uchun mo'jjallangan paxta teruvchi mashinalar ishlab chiqarilardi paxta dalalarda hosilning kamayishini ham ta'siri o'tkazib sanoatning susayishi ishlab chiqarish sekinlashuvi va sifatsiz mahsulot yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. O'zbekiston sanoatida yuz bergan bu jarayonni o'rganib manbalarni adabiyotlarni o'rganib taxlil qilgan jarayonda shularni taxlil qilamizki, korxona zavodlarda mahsulot yetkazish kamayish va ularda qayta instruktura qilinmagani foizni oshirish maqsadida mahsulotni sifatsizlanishi mahsulotga bo'lgan talabni ortishi korxonalarni davlatga jarima to'lagan, ayrimlarda ish susayib borganini ishlamay to'xtab turganiga guvohi bo'lamiz.

O'zbekiston iqtisodiyotni turli bo'qtonlar bilan tahqirlanganini markazdan turib uning holatini o'rganmasdan siyosat yurgazganini buning oqibatida iqtisodiyotni tanazzulga yuz tutib borganini guvohi bo'lamiz.

³⁷ O'zbekiston sovet mustamlakachligi davrida (II-kitob) T., "Sharq", 2000, 527-sahfa.

³⁸ O'sha manba, 526-sahfa.

³⁹ O'sha manba, 529-sahfa.

§4. 1980-yillarda mamlakat turg'unlik iskanjasda aholining iqtisodiy turmushga ta'siri.

Turg'unlikning iskanjasi sanoat korxonalardan tashqari aholi turmushiga ham ta'sir ko'rsatdi, bu ayniqsa 80-yillarning o'rtalarda kuchli tusoldi. Sovet davri siyosatdan yana biri "Hamma narsa inson uchun, insonning baxt-saodati uchun" balandparvoz shiorlar pardasiga o'ralgan bo'lib, amalda qo'llanmasdi. Qizil imperiya o'z manfatlarni birinchi o'ringa qo'yardi.

Ittifoq- yangi xo'jalik kompleksi, unda hamma respublikalar va xalqlar teng huquqlarga ega, deb e'lon qilingan va u Sovet Konstitutsiyasida yozib qo'yilgan bo'lsa-da amalda mutlaqo boshqa qonunlar harakatda edi.⁴⁰

Jumladan, Rossiya Federatsiyasidagi ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va idoralaridagi xodimlar bilan O'zbekistondagi xodimlarning ish haqlari bir-biridan keskin farq qilardi. Hatto O'zbekistonning o'zida ham Ittifoq tasarrufidagi korxonalar bilan mahalliy korxonalarda ishlaydigan ishchilarning oladigan oylik maoshlari o'rtasida ham katta farq bo'lardi.⁴¹ O'zbekiston iqtisodi Markaz budjeti hisobidan boshqarilardi Viloyatlarda asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangani va asosan ustvor bo'lib Paxta yakka hokimiyati o'rnatilgan bo'lib qishloq xo'jalik mahsulotlari poliz ekinlari sabzavodlar yetishmas edi va shu o'rinda qishloq mehnatkashlarning oylik ish xaqlari ham ancha pas darajada edi.

SSSR Statistika boshqarmasning bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1986-yil 25-mayda Toshkent shahri bozorlarida karam narxi Belgorod shahridagiga qaraganda ikki barobar qimmat, lavlagi narxi esa Omsk va Tomsk bozorlardagiga nisbatan bir yarim barobar qimmat bo'lgan. Nuks shahri bozorlarda esa sabzi Tobolsk va Novokuznesk shaharlaridagi narxda sotilgan⁴² bundan ko'rinib turibdiki sabzavot oziq ovqat poliz ekinlarning kamaytirilishi hisobiga narx-navoning oshishiga ham ta'sir ko'rsatganini bilamiz keyinchalik paxta maydonlarni kamaytirmasdan makkajo'xori ekishni targ'ib qildi.

O'zbekiston Paxta yakkahokimligning avj olishi, aholi uchun zarur bo'lgan qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarining kam ishlab chiqarishi, aholi xarid quvvatining nochorligi mamlakatda og'ir oqibatlarni keltirib chiqardi.

⁴⁰ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011, 572-sahifa.

⁴¹ O'sha manba, 571-sahifa.

⁴² O'sha manba, 571-sahifa.

O'zbekiston yiliga aholining o'rtacha go'sht, sut, tuxum kabi mahsulotlarni iste'mol qilish bo'yicha Ittifoq ko'rsatkichidan 3-6 barobar kam edi. Jon boshiga o'rtacha daromad oyiga 75 so'mdan kam bo'lgan aholi soni qariyb 45 foizni tashkil etardi.⁴³

Jumladan, 1950-yilda Ittifoq tassarrufidagi korxonalar ishchilarining ish haqlari 133 foiz oshgani holda, respublikaga qarashli korxonalardagi mehnatkashlarning ish haqlari faqat 73 foiz oshdi, xolos. 80-yillarning o'rtalariga kelganda O'zbekiston aholisning jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari Rossiya Federatsiyasi va boshqa respublikalarga taqoslaganda 2-3 barobar kam edi.⁴⁴ Ayniqsa, jamoa xo'jaliklari azolarning oylik ish haqlari juda past edi.

O'zbekiston eng bolajon respublikalardan bo'lganligdan aholining yerga va hovli joylarga bo'lgan ehtiyoji yil sayin oshib bordi 1959-yildan 1986-yilga qadar O'zbekiston aholisi 10 million 368 ming kishiga ko'paydi va jami bo'lib 18 million 487 ming⁴⁵ kishiga yetdi. Shu boisdan ham 1989-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda 240 ming oilaning mutlaqo yeri bo'lmagan, 1,8 milliondan ko'proq esa hovli uy-joy qurilishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun kengaytirishga juda muhtoj edi. Faqat Toshkent shahrining o'zida 92 ming oila⁴⁶ yer uchastkasi olish uchun navbat kutardi.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarni jamlashtirgan holda, O'zbekiston xalqi 80-yillarning o'rtalariga kelib sobiq Ittifoqda eng og'ir va nochor iqtisodiy ahvolga tushib qolgan edi.

O'zbekistonda xom ashyo va chala mahsulotlar tashib ketilar bu yerga esa boshqa resurslar va asbob-uskanalar bilan bir qatorda o'zi chiqargan xom ashyo va chala mahsulotlarni tayyor mahsulotga aylantirib qaytarib olib kelinardi. O'zbekistonning xalq mollarga bo'lgan ehtiyojining deyarli uchdan bir qismi boshqa respublikalardan keltirilish hisobiga qoniqtirlardi. Shuning bilan bir qatorda maishiy hizmat mahsulotlari mebel va boshqa buyumlar ham boshqa respublikalardan olib kelinardi ularga bo'lgan talab ehtiyoj deyarli qoniqtirmasdi.

Iqtisodiyotning rivojlanishdagi bunday bir tamonlamalik ishlab chiqaruvchilarga o'z mehnatlari natijalarni his qilishi imkonini bermasdi.

⁴³ Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T., "Sharq", 2011, 571-sahifa.

⁴⁴ Shamsiddinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixdan materiallar, (III-kitob), Andijon., 2004, 563-sahifa.

⁴⁵ O'zbekiston tarixi 10-sinf, T., "Sharq", 2006. 431-sahfa.

⁴⁶ O'sha manba, 429-sahfa.

Keng iste'mol mollarini ishlab chiqarish tobora kamaydi. Ular asosan chetdan keltiriladigan bo'ldi natijada respublika aholisning yengil sanoat, oziq-ovqat mollariga ehtiyoji kuchaydi.⁴⁷

Aholini ayniqsa qishloq aholisni ish bilan taminlay olmasdi, binobarin xalq farovonligini oshirish imkonini bermasdi respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti va izchil rivojlanishi oqsab qolayotgan edi.

Lekin 1971 yildan 1985 yillarga qadar O'zbekiston xalq xo'jaligida ishchi va xizmatchilar soni 264,5 mingdan 4833,5 ming nafarga ko'paydi. Biroq bu o'sish suniy ravishda, respublikamizga tashqaridan ko'plab kishilarni ko'chirib keltirilish hisobiga ro'y berdi.⁴⁸

Aholi tarkibda ishchilar soni anchagina o'sganiga qaramay, respublikamiz bu ko'rsatkich bo'yicha sobiq Ittifoq respublikalari ichida 1979 yilgi ma'lumotga ko'ra 13-o'rinda⁴⁹ turar edi. O'zbekiston ishchilar sinfnining milliy salmog'i jihatdan orqada qolmoqda edi.

Toshkent shaharda 1985-1986 yillarda mehnat resurslari ortiqchaligi 200 ming kishi bo'lishiga qaramay, respublikamizga tashqaridan 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassislar jalb qilindi.⁵⁰

Shu bilan birgalikda ishlab chiqarishda band bolmagan aholi soni ortib bordi. Ularning soni 1983 yilda 836 ming nafarni tashkil qildi.⁵¹

Sanoatning zamonaviy tarmoqlarida "o'zbek xalqi go'yo ishlashga qodir emasligi" va shu munosabat bilan ko'pyoshlar ishsiz yurganligi haqida asossiz turli mulohazalar keng tarqaldi. Darhaqiqat, respublikamizda 80-yillar ohirida bir necha millionga yaqin ishsizlar bor edi. Biroq buning boisi ularning ishlash ishtiyoqi yo'qligidan emas balkiy yuqorida takidlaganidak asos Markazning mahsus yo'naltrilgan siyosati tufayli va qolaversa bazi mahalliy mutasaddi rahbarlar tomonidan ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, ularning ish joylari, turar joy, bolalar bog'chalari hunar texnika bilim yurtlari bilan taminlash imkonini yetarlicha yarata olmaganidandir.

⁴⁷ O'zbekiston tarixi, T., "Yangi asr avlodi." 2003, 505-sahifa.

⁴⁸ O'sha manba, 511-sahifa.

⁴⁹ O'sha manba, 510-sahifa.

⁵⁰ O'sha manba, 511-sahifa.

⁵¹ O'sha manba, 511-sahifa.

Sovet tuzimi shunday nohaq va adolatsiz jamiyat barpo etdiki, unda haq, adolat, insof va diyonat bilan yashagan insonning umri xorlik, qashshoqlik va nochorlikda o'tar edi. Chunki mazkur tuzumning asosida "Yo'qolsin boylar yashasin yo'qsizlar!" g'oyasi yotardi. Ayni paytda bu tuzum sharoitida hatto oddiy bir yumushni ham to'g'rilik va adolat yo'lida hal qilishning iloji yo'q edi.

Manbalarning o'qib o'rganib xulosa chiqarish jarayonda O'zbekiston aholisining turmush tarzida qiyinchliklar bo'lganligini va shu o'rinda qonun doirasidan ham kamsitishlar bo'lganligini oylik ish xaqi yangi uchastkalar va oziq-ovqat mollari yetishmaganini bilib o'tdik. Respublikamizga tashab keltirilgan ishchilarning va o'zimizda ishsizlar ko'payishi o'zbeklar mehnat qilolmaydi deya tahqirlanishlar yuqoridagi amaldorlarning deyarli ko'pchiligi Markaz tomondan saylangani xalqning turmushi qiyinchliklari bilan ishi bo'lmasdan zo'r zo'raki boshqarganini ko'rdik.

Xulosa

Mavzu yuzasidan umumiy xulosa qilganda turg'unlik yillarda mamlakatimiz iqtisodi nochor tang holga kelib qolgani, boshlanishi jihatdan ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng avvalambor iqtisodni tiklashga harbiylashgan yo'ldan tinch qurilish yo'lga o'tildi. O'zbekiston iqtisodiyotda muhim ro'l o'ynagan paxtachilikka etibor qaratildi sanoatning boshqa tarmoqlari ham shu yo'nalishga o'tqazildi Markaz uchun xomashyo bazasiga aylantirildi. Haddan tashqari mafkuralashgan ittifoqda boshqa g'arb mamlakatlaridan yordamisz go'yo qizil imperiyani temir bilan o'rab olganday tashqardan kirmast va chiqmasdi ham buning oqibatida keyinchalik sanoat korxonalarini qayta rekanstruktura qilinmasligi zamonaviy jihozlar bilan taminlanmasligi natijasda turg'unlik holati kelib chiqara boshladi urushdan keyin sovuq urushi yuzaga keldi bu respublikalar o'rtasda qurollanish poygasini kuchaytirib yubordi iqtisodiyotda ko'p mablag' shu yo'lga sariflandi turg'unlik holatiga tushib qolishga sabablardan biri bo'ldi.

Turg'unlik keyinchalik butun ittifoqni o'z domiga torta boshladi O'zbekiston undan chetda qolmadi 1970-80-yillarga kelib olinadigan foizlar kamayib ketdi bu jarayon barcha sohalarda kuzatildi

Foizlarni oshirish maqsadida mahsulotni ko'proq ishlab chiqarishga etibor berildi buning oqibatida keyinchalik ko'p va lekin sifati past mahsulotlar ko'paydi bazi bir korxonalar sifatsiz mahsulot ishlab chiqargani uchun davlatga jarima to'lashga majbur bo'ld.

Aholi turmush tarzida ish bilan taminlash shahar joylarda pasayib ketdi hatto oylik ish haqlari o'rtasda farq mavjud bo'lib jamoa xo'jaliklari ayniqsa ancha past darajada edi qishloq xo'jaligi paxta ekishga jalb qilingan bo'lib sabzavot yetishtirish oziq-ovqat istemoli bo'yicha ittifoqda oxirgi o'rinlarda bo'lgan ittifoqdosh respublikalar oziqa zanjiri yo'li bo'lib bu degani mahsulotlar bir biriga yetkazib berardi O'zbekistonning butun iqtisodi, xalq xo'jaligi markazdan turib buyruqlar bilan boshqarilardi bu esa yana bir iqtisodiy bo'hron yuzaga kelishning sabablardan biri edi. Bundan ko'rinib turibdiki turg'unlik yillarda iqtisotga nafaqat balki turli jalbxalarga shuningdak xalq xo'jaligiga ham jiddiy tasir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A Tarixi xotirasiz kelajak yo'q, T.,- "Sharq" 1998.
2. Karimov I.A O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida, T.,- "O'zbekiston" 1995.
3. Karimov I.A O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyoti yo'li, T.,- T.; 1992.
4. Karimov I.A O'zbekiston mustaqillika erishish ostonasda, T.,- " O'zbekiston" 2011.
5. Karimov I.A O'zbekiston buyuk kelajak sari, T.,- "Sharq" 1998.
6. Karimov I.A Bizdan obod va ozod vatan qoladi, T.,- "O'zbekiston" 1996.
7. Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T.,- 2008.
8. Karimov I.A Vatan ravnaqi uchun har birmiz masulmiz, T.,- "O'zbekiston" 2001.
9. Karimov I.A Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li, T.,- "O'zbekiston" 2003.
10. Alimova D va b. O'zbekiston tarixi, (1917-1991) ,T.,- "Sharq" 2000.
11. Jo'rayev N. Karimov Sh. O'zbekiston tarixi, T.,- "Sharq" 2011.
12. Rajabova R. va b O'zbekiston tarixi,(1917-1993), T.,- "O'quvch" 1994.
13. Rajabov Q. O'zbekiston tarixi, T.,- "Sharq" 1994.
14. Ziyoev H O'zbekiston mustaqillik uchun kurashlari tarixi, T.,- "Sharq" 2001.
15. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O'zbekiston tarixi, T.,- "Iqtisod-Moliya" 2006.
16. Shamsiddinov R. Karimov Sh. O'zbekiston tarixdan materiallar,(III-kitob) Andijon., 2004.
17. Shamsiddinov R. va b Vatan tarixi,(III-kitob), T.,- "Sharq" 2010.
18. O'zbekiston savet mustamlakachilgi davrida, (II-kitob), T.,- "Sharq" 2000.
19. O'zbekistonning yangi tarixi, (II-kitob), T.,- "Sharq" 2000.
20. O'zbekiston tarixi, T.,- "Yangi asr avlodi." 2003.